

# **HOZIRGI KUNDA PEDAGOGIKADA XALQ MEHNATINING SHAKLI, USULI VA MAZMUNI**

**Isakobulov Rajabboy Yusufovich**

**Jizzax Politexnika Instituti  
“Jismoniy tarbiya” kafedrasi dos. v.b.  
Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi**

**Mazhitbekov Aristanbek Musayevic**

**Auevezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mehnatning inson hayotida tutgan o‘rnini haqida pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yoritilib, bunda albatta sharq mutafakkirlarining ham fikri va mulohazalari e’tiborga olinganligi xususida yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ta’lim, tarbiya, mehnat, tafakkur, mushohada, odob, ahloq, ma’naviyat, ma’rifat.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль труда в жизни человека с педагогической точки зрения, которая, безусловно, учитывает взгляды и мнения восточных мыслителей.

**Ключевые слова:** *образование, воспитание, труд, созерцание, наблюдение, этикет, нравственность, духовность, просвещение.*

**Abstract:** *This article discusses the role of labor in human life from a pedagogical point of view, which, of course, takes into account the views and opinions of Eastern thinkers.*

**Keywords:** *education, upbringing, labor, contemplation, observation, etiquette, morality, spirituality, enlightenment.*

O‘zbek xalqi o‘z hayoti davomida turmushda ishlab chikarish vositalarini yaratish zarurligini, turmushda o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qilish kerakligini tushunib yetdi. Bu qadimgi jamiyatga xos xususiyat edi. Davr o‘tishi bilan, jamiyatdagi o‘zgarishlar tufayli aqliy mehnat tarbiyasi

jismoniy mehnat tarbiyasidan ajraldi. Mehnatga munosobat o'zgardi. Jismoniy mehnatga tayyorlash birinchi o'ringa qo'yildi. Mehnat qilish va mehnatni sevish inson kamolotining mezoni bo'ldi, mehnat salomatlik vositasi hisoblana boshladi. Bu mehnat tarbiyasining birinchi shakli. Mehnatning ikkinchi shakli - bu aqliy mehnatdir.

Aqliy mehnat tafakkur, mushohada, dunyoni bilish, bilimlarni egallash, ular asosida o'z dunyoqarashini va e'tiqodlarini shakllantirib borishdir.

O'tmishda mehnat tarbiyasida turli usul va vositalarni qo'llash orqali bolalar mehnatga ruhan va amaly jihatdan tayyorlangan. Bolalarni amaly mashg'ulotga tayyorlashda ishontirish, qiziqtirish va bola faoliyatini baholash usullari qo'llangan. Xalq bu ishlarni amalga oshirishda vosita sifatida o'yin va marosimlardan, xalq og'zaki ijodining mehnat mavzuidagi asarlaridan, badiiy so'z vositalaridan foydalangan.

Bolalarni mehnat qilish zarurligiga ishontirishda, ularni mehnatga ruhan tayyorlashda ajdodlarimiz maqol, ertak, topishmoqlar bilan birga da'vat qilish, undash, nasihat qilish, maslahat berish, amalda ko'rsatish usullarini ham qo'llashgan.

Bu usullar bilan bolalarda mehnatning ahamiyati, uning inson hayotida tutgan o'rni haqida tushuncha hosil qilganlar.

O'tmishda bobolarimiz bolalarni yaxshi va namunali ishlari uchun rag'batlantirganlar. Bu ham mehnat tarbiya-sining eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunda "Baraka top", "Juda soz", "Umringdan baraka top" yoki "Umring ziyoda bo'lsin" kabi so'zlari bilan bolaning ko'ngli ko'tarilgan, kulib-erkalab boshi silangan.

Mehnat tarbiyasida jazolash usuli ham bo'lib, bu mehnat qilishni istamagan, topshiriqni bajarmagan, aldamchi, ishyoqmas bolalarga nisbatan qo'llangan. Bunday vaziyatda va'dani bekor qilish, majbur qilish usullaridan ham foydalanilgan.

Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda bolalar o'yinlarining ahamiyati katta. Bolalar o'yin jarayonida o'yin vositasida tarbiyalangan.

Bu borada o‘z davrida N.K.Krupskaya o‘zbek bolalari o‘yinlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ijobiy baholab: “O‘zbek bolalari tabiat bilan yaqin munosobatda yashaydilar. Ular juda ko‘p qiziqarli o‘yinlarga ega. Ular rus bolalariga qaraganda tez chopadilar”, - degan edi. Darhaqiqat, “Bekinmachoq”, “Chillak”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Ko‘z bog‘lagich”, “Dor” kabi o‘yinlar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni mehnatsevarlik, ishchanlik ruhida tarbiyalashda xalq ertaklarining ham roli beqiyosdir. Masalan, mehnatsevarlik o‘zbek xalq ertaklaridan “Zumrad va Qimmat” da o‘z ifodasini topgan.

Zumrad o‘zbek xalq pedagogikasida ulug‘lanadigan eng yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan latofatli, mehnatsevar, odobli qiz.

Qimmat esa, aksincha, yalqovlikni, hasadgo‘ylikni, baxil-likni, tantiqlikni, kattalarga hurmatsizlikni yuqtirib olgan. Albatta, bunda onasining noto‘g‘ri tarbiyasi o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Yaxshi fazilatlarning sharofati, yomon fe’l-atvorning kasofati ertakda juda ta’sirchan tarzda ifodalangan. Shuning uchun ham o‘bek oilalarida “Zumrad va Qimmat” ertagi qayta-qayta o‘qiladi, aytiladi.

O‘zbek oilalaridagi bolalar yoshligidan mehnat muhitida bo‘lganligi sababli, ular qo‘llaridan keladigan ishlarga juda barvaqt jalb qilinadilar va otagonalari singari vijdonan mehnat qila oladilar.

Qizlarga sifatli bichish va tikish, to‘qish, gilamdo‘zlik, kashtachilik, zardo‘zlik, do‘ppi tikish o‘rgatilgan. O‘g‘il bolalar esa kundalik hayotga kerakli oddiy buyumlarni, shuningdek, mehnat quollarini yasashga jalb qilingan.

Bolalarni milliy mehnat an’analari ruhida tarbiyalashda mahalla o‘ziga xos markaz sifatida boy va xilma-xil imkoniyatlarga ega.

Xulosa o‘rinda shu aytish joizki, mehnatning inson hayotida tutgan o‘rnini haqida qadimgi muqaddas kitobimiz – “Avesto”da ham juda qimmatli fikrlar keltirilgan. Masalan, “Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o‘z qo‘llari bilan noz-ne’mat yaratishi lozim”, - deyiladi unda.

Yoki “Bolalar juda yosh paytidanoq daraxt ko‘chati o‘tkazish, uy-ruzg‘or

qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatilishi shart”, - deyiladi. Yoki yana “Avesto”da “Mehnat qilmaydigan inson, sen haqiqatan ham, tilanchilar qatorida yot eshiklarga ta’zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan. Haqiqatan ham, sening yonigdan turli xil ziroatlarni olib o‘tadilar, bu noz-ne’ matlarning barchasi mehnat qilayotgan, to‘q va faravon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul-abad shunday bo‘lajak!”, - deyiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. B.N.Gapparov va boshqalar. “Xalq pedagogikasi”, “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent. 2009 yil, 203-209 betlar.
2. I.G‘aybullaev va boshqalar. Pedagogika. Ma’ruzalar matni. Toshkent – 2000, 444 – bet.
3. A.Ibroximov, X.Sultonov “Vatan tuyg‘usi”, Toshkent – 1996, 83 – bet.